



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARIDAGI XALQ SAYILLARINING ETNOMADANIY XUSUSIYATLARI

Mamatov Jasurbek Qodirqul o'g'li

Namangan davlat universiteti, 3-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Namangan viloyati ziyoratgohlarida amalga oshiriladigan an'anaviy marosimlar tarixiy-etnografik jihatdan tahlil qilinib, ularning zamonaviy jamiyatdagi o'rni yoritiladi. Unda ziyorat marosimlarining qadimgi e'tiqodiy qatlamlari, islomiy qadriyatlar bilan uyg'unlashuvi va hududiy xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xalq sayllarining ijtimoiy integratsiya, madaniy merosni uzatish hamda jamoaviy birdamlikni mustahkamlashdagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ziyoratgoh, marosim, an'ana, Namangan viloyati, etnografiya, tarixiylik, zamonaviylik, diniy amaliyot, madaniy meros.

ЭТНОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ НАРОДНЫХ САЙИЛОВ ПРИ СВЯТЫНЯХ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Маматов Жасурбек Кодиркул угли

Наманганский государственный университет, базовый докторант 3 курса

Аннотация

В данной статье традиционные обряды, осуществляемые в местах паломничества Наманганской области, анализируются с историко-этнографической точки зрения, а также освещается их роль в современном обществе. Рассматриваются древние вероисповедные слои обрядов паломничества, их синтез с исламскими ценностями и региональные особенности. Кроме того, раскрывается значение народных празднеств в обеспечении социальной интеграции, передаче культурного наследия и укреплении общественной сплочённости.

Ключевые слова: место паломничества, обряд, традиция, Наманганская область, этнография, историчность, современность, религиозная практика, культурное наследие.

ETHNOCULTURAL CHARACTERISTICS OF FOLK FESTIVALS AT SHRINES IN NAMANGAN REGION

Mamatov Jasurbek Qodirqul ogli

Namangan State University, 3rd Year Basic Doctoral Student

Abstract

This article analyzes the traditional rituals performed at shrines in the Namangan region from a historical and ethnographic perspective and highlights their role in contemporary society. It examines the ancient belief layers of pilgrimage practices, their integration with Islamic values, and their regional characteristics. Additionally, the study reveals the significance of folk festivals in fostering social integration, transmitting cultural heritage, and strengthening communal solidarity.

Keywords: shrine, ritual, tradition, Namangan region, ethnography, historicity, modernity, religious practice, cultural heritage.

Namangan viloyati ziyoratgohlaridagi marosimlar va xalq sayllari milliy g'oya hamda

etnomadaniy qadriyatlar tizimida muhim o‘rin tutadi. Ushbu marosimlar nafaqat diniy e‘tiqodlarni ifodalovchi ijtimoiy-madaniy hodisalar sifatida, balki xalqning madaniy merosini saqlash va uni avlodlarga uzatish vositasi sifatida ham qaraladi. Ularning tarixiy-etnografik tahlili xalqning urf-odatlarini, qadriyatlari hamda jamiyat hayotidagi funksiyalarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bugungi globallashuv va turli madaniyatlarning o‘zaro ta‘siri sharoitida ziyoratgohlardagi marosimlar va xalq sayllarini madaniy meros sifatida saqlash hamda avlodlarga yetkazish dolzarb masala hisoblanadi. Ularni o‘rganish jamiyatning ma‘naviy rivojlanishi, diniy e‘tiqodlar va an‘anaviy qadriyatlarning uyg‘unlashuvi, shuningdek, jamoaviy birdamlik va ijtimoiy integratsiyani ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot mavzusi nafaqat etnografik jihatdan, balki madaniy merosni saqlash, xalq an‘analari va marosimlarini anglash nuqtai nazaridan ham ilmiy va ijtimoiy jihatdan dolzarbdir.

Metodlar

Mazkur maqolada Namangan viloyati ziyoratgohlarida amalga oshiriladigan an‘anaviy marosimlar va xalq sayllarini tadqiq etishda etnografiya fanida qabul qilingan metodlardan foydalanildi. Jumladan, kuzatuv, suhbat va intervyu orqali ziyoratchilar hamda mahalliy aholining amaliy tajribalari o‘rganildi, tarixiy manbalar tahlil qilinib, marosimlarning shakllanishi va rivojlanish jarayonlari aniqlashtirildi. Ushbu metodologik yondashuv ziyoratgohlardagi marosimlar va sayllarning xalq ongidagi o‘rni, ijtimoiy integratsiya va madaniy merosni uzatishdagi ahamiyatini tizimli ravishda yoritishga imkon beradi.

O‘rganilganlik darajasi

Mazkur mavzuni o‘rganishda etnolog olimlar Iso Jabborov, B. Sarimsoqov, A. Asqarov, A. Ashirov, U. Qoraboyev, O. Nishonova, M. Sobirova, A. Sarimsoqov, F. Akchayev, Sh. Jumayeva va boshqa olimlarning ilmiy fikrlari hamda tadqiqotlaridan foydalanildi. Xususan, A. Ashirov, B. Sarimsoqov, A. Sarimsoqov, F. Akchayev va Sh. Jumayeva ishlari mavzuni yoritishda asosiy manba sifatida qo‘llanildi. Ular ziyoratgohlardagi marosim va sayllarning ijtimoiy, madaniy va etnografik ahamiyatini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Shu tariqa, maqola nafaqat ziyorat amaliyotlarini ilmiy asosda yoritadi, balki ularning zamonaviy jamiyatdagi roli va madaniy meros sifatidagi ahamiyatini ham ochib beradi [1].

Tadqiqot natijalari

Mazkur mavzuni tarixiy-etnologik jihatdan yoritishda “bayram”, “sayil”, “marosim” va “gedonistik” tushunchalarining mazmunini qisqacha aniqlab olish muhimdir. “Bayram” (turkiycha — katta yig‘in, to‘y) xalq tomonidan keng nishonlanadigan, madaniy-ma‘naviy an‘analarga asoslangan umumiy shodiyona sifatida talqin etiladi [2]. “Sayil” (arabcha) — sayr qilish, tabiat qo‘ynida dam olish va ommaviy tomoshalar bilan bog‘liq madaniy hodisa hisoblanadi [3; 172-b.]. “Marosim” (arabcha) esa urf-odat va an‘analar asosida o‘tkaziladigan diniy yoki ijtimoiy tadbirlarni anglatadi [4; 248-b.]. Ushbu tushunchalar bayram va marosimlarning ijtimoiy-madaniy hamda ruhiy ahamiyatini ochib berishda muhim o‘rin tutadi.

Namangan viloyati ziyoratgohlarida mahalliy etnoslar, shuningdek, davlat tashkilotlari tomonidan siyosiy va madaniy tadbirlar muntazam o‘tkaziladi. Jumladan, hokimlikning sayyor qabullari, sport musobaqalari, Navro‘z bayrami munosabati bilan sumalak tayyorlash, shuningdek, “darveshona” qilish, chalpak yopish va is chiqarish kabi an‘analar amalga oshiriladi [5].

Navro‘z bayrami etnologik jihatdan bahorgi tengkunlik bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u tabiatning uyg‘onishi, yangilanishi hamda hayotiy sikllarning qayta boshlanishini ifodalaydi. Bu bayramning ildizlari qadimgi Sharq xalqlari, xususan, Markaziy Osiyo hududida yashagan etnoslarning dunyoqarashi va kosmogonik tasavvurlariga borib taqaladi.

Mazkur qarashlar “Hurda Avesto”da ham o‘z aksini topgan. Ushbu manbada bahor fasliga oid marosimlar va bayramlar haqida ma‘lumotlar uchraydi. Jumladan, unda “Maydnoy-zaremaya” (“Bahor o‘rtasi”) deb ataluvchi bayram tilga olinadi. Bu bayram tabiatning jonlanishi, o‘simliklar dunyosining qayta uyg‘onishi va inson hayotida yangi davr boshlanishini ifodalovchi

muhim marosim sifatida talqin etiladi [6; 10-b.].

Shu bois Navro'z nafaqat kalendar bayrami, balki qadimiy etnoslarning tabiat bilan uyg'un yashash falsafasini aks ettiruvchi madaniy fenomen sifatida namoyon bo'ladi.

Turli sayil va marosimlar ko'pincha muqaddas ziyoratgohlar va qabristonlar atrofida o'tkazilgan. Bahor faslida "Boychechak sayli", "Lola sayli", "Sunbul sayli" kabi gul bayramlari nishonlanib, tabiat uyg'onishiga xos qadimiy an'analar davom ettirilgan. Bahorning ilk kunlarida, go'yoki quyoshning iliq nurlari ostida boychechak unib chiqadi. O'zbeklarda u bahor elchisi, baxt-saodat xabarchisi hisoblanadi. Bahorning dastlabki shodiyonasi ham boychechak sayli sanaladi. Yurtimizning Toshkent viloyati va Farg'ona vodiysida keng ommalashgan boychechak saylida bolalar dasta-dasta boychechaklar terib, so'ngra to'p-to'p bo'lib uyma-uy yurib qo'shiqlar aytganlar, keksa buvilar esa boychechakni ko'zlariga surtib: "Omonlik, omonlik, hech ko'rmaylik yomonlik, yanagi yil shu kunlarga eson-omon yetaylik", deb niyat qilganlar.

Chust tumanida yosh kelin-kuyovlar Bibiona ziyoratgohiga kelib, uni aylanib chiqish va shu yerda suratga tushishni odat qilganlar. Xalq tasavvurida Bibiona ayollar timsoli sifatida yuksak e'tirof etiladi. Rivoyatlarga ko'ra, qadimda jamoalar ayollar tomonidan boshqarilgan va qavm rahbari "Bibiona" deb atalganligi haqida qarashlar mavjud.

Mingbuloq tumani Alami qishlog'ida esa maktab bitiruvchilari har yili "So'nggi qo'ng'iroq" kuni Alamiota ziyoratgohiga borib, jamoaviy ziyoratni amalga oshiradilar. Bu yerda yoshlar birgalikda harakat qilish va hamjihatlikni mustahkamlash ramzi sifatida turli marosimiy amallarni bajaradilar [7].

Norin tumani Marg'izor qishlog'ida sovet davrida paxta mavsumi oldidan Shahidmozortepa, ya'ni Shoazizbuva mozori hududida ommaviy sayl o'tkazish an'anasi bo'lgan. U qurbonlik qilish, taom tayyorlash va jamoaga taqsimlash bilan kechib, uzoq yillar davom etgan, keyinchalik turli omillar ta'sirida to'xtagan [8].

Pop tumani Chodak qishlog'idagi Chur-chur momo ziyoratgohida har bahor "Sumalak sayli" tashkil etilgan. U ikki bosqichdan — sumalak tayyorlash va uni jamoa bilan iste'mol qilishdan iborat bo'lib, asosan ayollar ishtirokida o'tgan. "Sumalak sayli" qadimdan kishilarda birdamlik va ahillik hissini tarbiyalab kelgan. Sumalak tayyorlanadigan ziyoratgohga qishloq ahli bir hovuchdan un olib kelib, birgalikda taom pishirgan, bir qozonda tayyorlangan ovqatni esa hamma baham ko'rgan [9].

Shuningdek, erta bahorda dehqonlar Xo'ja Abdurahmon ibn Avf ziyoratgohiga borib, baraka tilash, qurbonlik qilish va duo o'qishni odat qilganlar. Bu jarayonda tabiat bilan bog'liq qadimiy tasavvurlar ham saqlanib qolgan [10; 140-b.]. E'tiborlisi shundaki, bunday ziyoratlar faqat diniy marosim doirasida qolib ketmay, asta-sekin ommaviy sayl va yig'in shakliga ham kirib borgan. Ya'ni ziyorat jarayonlari ijtimoiylashib, unda nafaqat ibodat, balki jamoaviy muloqot, dam olish, savdo-sotiq va turli urf-odatlarining namoyishi ham kuzatiladi. Bu esa ziyoratgohlarning nafaqat diniy, balki ijtimoiy-madaniy markaz sifatida ham faoliyat yuritganini ko'rsatadi.

Xulosa

Ziyoratgohlar xalq ongida muqaddas va "mo'jizaviy" kuchga ega maskan sifatida qaraladi. Bu yerlarda duo qilish, niyat tilash va nazr ado etish kabi amaliyotlar keng tarqalgan bo'lib, ular nafaqat diniy, balki ijtimoiy ahamiyat ham kasb etadi. Sayillar ko'p hollarda fasllarga bog'liq bo'lib, bahor-yoz fasllarida ommaviy, kuz-qish mavsumida esa ko'proq oilaviy shaklda o'tkaziladi. Ziyoratgohlarda o'tkaziladigan sayillar, marosimlar va bayramlar xalqimizning boy etnomadaniy merosi hamda ko'p asrlik an'analarni o'zida mujassam etgan holda, milliy g'oya, qadriyatlar va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutib kelgan. Bunday sayillar orqali avlodlar o'rtasida ma'naviy meros uzviy davom ettirilib, jamiyatda diniy-axloqiy me'yorlar va urf-odatlarining barqaror saqlanishiga xizmat qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jabborov I. M. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. — Toshkent: O'qituvchi, 2003. — 226

b.;

2. Ashirov A. A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. — 275 b.;
3. Akchayev F. Sh. Jizzax vohasi ziyoratgohlari va qadamjolari: monografiya. — Toshkent, 2021. — 185 b.;
4. Jumayeva Sh. B. Toshkent viloyati ziyoratgohlari: rivojlanish bosqichlari va o‘ziga xos xususiyatlari: tarix fanlari bo‘yicha PhD dissertatsiyasi avtoreferati. — Termiz, 2022;
5. Sarimsakov A. A. O‘zbeklarning kalendar marosimlari (Farg‘ona vodiysi materiallari asosida): tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2010.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild. — Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. — B. 142.
7. Qoraboyev U. Milliy madaniyat masalalari. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. — 234 b.
8. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. M harfi. — Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. — 975 b.
9. Dala yozuvlari. Namangan viloyati tumanlari. — 2024–2025-yillar.
10. Ashirov A. “Avesto”dan meros marosimlar. — Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2001.
11. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Mingbuloq tumani, Alami MFY. — 2024-yil.
12. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Norin tumani, Marg‘izor MFY. — 2024-yil.
13. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Pop tumani, Chodak MFY. — 2025-yil.
14. Sarimsakov A. A. O‘zbeklarning kalendar marosimlari (Farg‘ona vodiysi materiallari asosida): tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi. — Toshkent, 2010.